

TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION

TEXNLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Egamberdiyeva Maftuna Karimboy qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

Telefon:99 893 283 99 12

maftunaegamberdiyeva8@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6782534>

Annotatsiya: Maqolada Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Shuningdek, muallif mavzular bo'yicha aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirishda fan o'qituvchilari dars mashg'ulotlarini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish bo'yicha o'z tavsiyalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar: Innovatsion ta'lim texnologiyalari, maqsad, o'quv faoliyati, ta'lim modeli, samaradorlik, tizimli yondashuv, didaktik o'yinlar, metod.

Hozirgi kunda "Ta'lim to'g'risi"dagi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" ning oldiga qo'yilgan ustuvor vazifalar-jahon talablari asosida yetuk har tamonlama raqobatbardosh, o'z bilimi va malakasini mustaqil ravishda oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashadigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, yosh avlodga chuqur tarbiya berish asosida barkamol insonlarni voyaga yetkazishdan iborat. Bu borada Prezidentimizning: "Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"-deb ta'kidlagan edi. Ma'lumki, mamlakatimiz hayotining hamma jabhalarini innovatsion jarayonlar qamrab olayotgani qatorida ular o'qitishning yangicha, noan'anaviy usullari shaklida ta'lim tarbiya amaliyotida tabora keng joriy etib borilmoqda. Bu jarayon, albatda, asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilyapti va uning yo'lida konservativ tizim bilan bog'liq qator to'siqlar uchrayapti. Ta'limning yangi o'qitish texnologiyalarining joriy etilishida qiyinchilik tug'diruvchi asosiy psixologik omillardan biri shubhasiz, pedagoglarning innovatsiyalarga bo'lgan munosabatidir.

Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi-talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiya va ularning ta'limdagi qo'llanishiga oid bilimlar, tajribalar o'quvchilarni yuksak bilimli va intelaktual salohiyatga, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Intelektual texnologiyalar inglizcha "innovation"- yangilik kiritish ma'nosini anglatadi. U pedagogik jarayon ya'ni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatidagi o'zgarish yangilik kiritish: o'quv jarayonidagi interfaol usullardan to'liq foydalanishni o'z ichiga olsa, vositalar esa o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyati orqali ta'lim mazmuniga ta'sir ko'rsatadigan vositalarni o'z ichiga oladi.

Bunday usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyat ko'rsatishlari orqali amalga oshiriladi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimini o'qitishda va o'qituvchilar tomonidan noan'anaviy ta'lim metodlari joriy etilib, o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlari keng qo'llanilmoqda. Jumladan axborotlashtirilgan multimediali ta'lim texnologiyalarini maktabgacha ta'limga joriy etish orqali o'tiladigan mashg'ulotlar mazmunini tarbiyalanuvchilar ongiga to'liq va mukammal ravishda singdirish, innovatsion vositalar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida AKTdan foydalanish bilan birga, zamonaviy metodlarni qo'llash, o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

Ma'lumki, ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'yin turlari juda ko'p bo'lib, hozir bir nechtasini aytib o'taman:

"Sinkveyn", "Kungaboqar", "Aqliy hujum", "Klaster", "Guruhlarda ishlash", "Issiq kartoshka", "Rolli o'yin", "Jim o'yini" metodi, "Antiqva rassom" metodi.

O'yinlarga izoh berib o'tamiz.

Sinkveyn usuli. Sinkveyn - fransuz tilida «5 qator» ma'nosini bildiradi.

Sinkveyn- ma'lumotlarni sintezlash (bir butunga keltirish)ga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib, unda o'rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea, mavzu) to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda, o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish- murakkab g'oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechagina so'zlar bilan ifodalash uchun muhim bo'lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish qoidalari:

- ☒ 1-qator: Mavzu bir so'z bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi).
- ☒ 2-qator: Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (2 ta sifat yoziladi).
- ☒ 3-qator: Mavzu doirasidagi hatti-harakatni uchta so'z bilan ifodalanadi. (3 ta fe'l yoki ravishdosh yoziladi).

☒ 4-qator: Mavzuga nisbatan munosabatni anglatuvchi va to'rtta so'zdan iborat bo'lgan fikr yoziladi. (4 ta so'zdan iborat jumla yoziladi).

☒ 5-qator: Mavzu mohiyatini takrorlaydigan, ma'nosi unga yaqin bo'lgan bitta so'z yoziladi (mavzuga sinonim so'z yoziladi). Misol:

“Issiq kartoshka” metodidan barcha darslarda foydalanish mumkin, jumladan matematika darsida karra jadvalini aytirishda kichik kaptokni o'quvchilar karra jadvalni aytish bilan birga koptokni bir-biriga uzatadilar. “Kartoshka”ni tushirgan o'quvchi o'yinni tark etadi.

Ona tili darsida esa yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida qo'l keladi. “Issiq kartoshka” ni o'quvchilar bir-biriga tezlik bilan uzatadilar, o'qituvchi “to'xta” buyrug'uni berganda qo'lida kartoshka qolgan o'quvchi “kartoshka” ni ichini ochib ichidagi savolga javob beradi. O'yin shu tariqa davom etadi.

“Koptok” metodida esa koptokni rasmi tushirilgan kartoshkalar orqasiga matematikaga doir misollar yozilgan bo'ladi, bundagi misollarni yechgan o'quvchi doskaga koptokni yopishtiradi. “Men ham gol ura olar ekanman” kabi fikrlar o'tishi o'quvchini darsga yanada tayyorgarligini, qiziqishni oshirib boradi.

“Rolli o'yin” metodi o'quvchilarni faollikka o'rgatadi. Bunda o'quvchilar kesma harflardan yangi so'zlar tuzish kabi masniqlarni olib boradilar. Ketma-ket so'zlar tuzishda quydagilardan foydalanish mumkin:

	R	r	
	L	l	
a	M	m	a

		k	k	
		s	s	
h	a	m	m	A

“Kungaboqar” metodida kartondan yasalgan kungaboqarning gultojilariga savollar yashirilgan bo'ladi, bundagi savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchiga kungaboqar kulib boqadi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Yangi metodlardan yana biri “Antiq rassom” metodi bo'lib, bunda matematika fanida geometrik shakllarni chizishda foydalanish mumkin.

O'tkazish tartibi: Bir o'quvchini ko'zi bog'liq holda doskaga chiqariladi va uchburchak, to'rtburchak kabi shakllarni chizish sharti qo'yiladi. Bunda o'quvchining tasavvuri aniqlanadi. Geometrik shakllarni hayotiy misollar bilan xulosalab o'tiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, Interfaol usullar orqali ta'lim samaradorligi oshadi, o'qituvchi va talaba o'rtasida o'zaro hamkorlik; talabalarda erkin ijodiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi va shaklladi. Bu innavation yondashuvda talaba shaxsi ta'limda markaziy figuraga aylanadi.

Ta'lim mazmunini boyitishga oid ishlarni muntazam ravishda olib borish lozim. O'quvchilar ma'naviyatini shakalantirishda pedagogik omillarni ham ko'plab topsa bo'ladi. Ular ta'lim mazmunini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga mustahkam didaktik asos bo'la oladi va ularni ta'lim mazmuniga ustalik bilan kiritish esa, o'ziga xos innovatsion jarayon bo'lib, bunda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.- Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003
2. Djamilova N.N. va Xasanboeva O. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi.T.: "O'zbekiston". 2008 y. Metodik qo'llanma.